

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Nuriston shahrida “YANGI O’ZBEKİSTON – YANGIChA DUNYoQARASH” shiori ostida “ Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida Yoshlar festivali bo’lib o’tdi.

Bugun ma’naviy-ma’rifiy ishlarning davlat siyosati darajasiga ko’tarilgani bejiz emas, albatta. Chunki davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”. Yangi O’zbekistonni barpo etishda esa bu borada bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot hamda ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz. Joriy yilning 26-iyun kuni Nishon tumani Nuriston shahrida “Yangi O’zbekiston – yangicha dunyoqarash” shiori ostida “ Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida Yoshlar festivali o’tkazildi. Tadbir davomida iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan folklor, ashula va raqs, QVZ chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek, talabalar tomonidan milliy chiqishlar va kuy-qo’shiqlar ijro etilib, barcha yig’ilganlar ko’nglini xushnud etib, ko’tarinki ruh bag’ishladi.



Festival doirasida “Bir ziyoli - bir mahallaga ma’naviy homiy” shiori ostida TIQXMMI Qarshi filialiga biriktirilgan Nishon tumani Nuriston shahrining Nurchi, Kimyogar, Nuriston mahallalarida yoshlar o’rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Shuningdek, ushbu sport musobaqasi doirasida mahallalardagi 30 ga yaqin ko'ngilli yoshlar ham ishtirok etib, sportning voleybol turi bo'yicha o'zaro bellashishdi. Jumladan, musobaqada jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Elyor Quvvatov boshchiligidagi “Talabalar” jamoasi ham musobaqada faol ishtirok etib faxrli I o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqadagi faol ishtiroki uchun g'olib jamoalar Nishon tumani hokimligi tomonidan munosib taqdirlandilar.



Toshkent irrigasiya va qishloq xo’jaligini mexanizasiyalashli muhandislari instituti Qarshi filiali hamda Nishon tumani hokimligi va bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda o’tkazilgan ushbu tadbir navqiron avlodni istiqqlol g’oyalariga sadoqat, Vatanga muhabbat ruhida, yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalashga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Tadbirda Nishon tumani hokimi o’rinbosari S.Xudoyqulov va TIQXMMI Qarshi filiali direktor o’rinbosari D.Quvvatovlar so’zga chiqdi.

**Matematika va tabiiy fanlar kafedrasи o’qituvchisi Ilhom G’aniyev axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**